

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING KOGNITIV
XUSUSIYATLARI.

Rustamova Ruxshona Akramjon qizi

Qo'qon davlat universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti
Maxsus pedagogika (surdopedagogika) yo'nalishi
202-guruh talabasi

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.06.2026

Revised: 19.06.2026

Accepted: 20.06.2026

KALIT SO'ZLAR:

eshitishida nuqsoni
bo'lgan bolalar,
kognitiv rivojlanish,
bilish jarayonlari, sezgi,
idrok, xotira, diqqat,
ko'ruv idroki,
surdopedagogika,
korreksion ta'lim.

Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning kognitiv rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Kognitiv jarayonlarning asosiy tarkibiy qismlari bo'lgan sezgi, idrok, xotira, diqqat va tafakkurning rivojlanishiga eshitish nuqsonining ta'siri yoritilgan. Eshituv analizatori faoliyatining cheklanishi natijasida bolalarda ko'ruv idroki, vizual xotira va amaliy faoliyatning yetakchi o'rin egallashi ilmiy manbalar asosida tavsiflangan. Shuningdek, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirishda maxsus pedagogik yondashuvlar, korreksion mashg'ulotlar hamda vizual tayanchlardan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan.

Hozirgi kunda maxsus pedagogika sohasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Eshitish analizatori faoliyatining buzilishi bolaning nutqiy, psixik va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, bilish jarayonlarining o'ziga xos shakllanishiga sabab bo'ladi. Shu bois ushbu toifadagi bolalarning kognitiv rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, ularning ta'lim-tarbiyasini samarali tashkil etishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Kognitiv so'zi inglizcha (lotin) "cognize" so'zidan olingan bo'lib, u bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki "cognition" – bilish, tushinish kabi ma'nolarni beradi. Kognitiv faoliyat insonning atrof-muhitni anglash, bilimlarni egallash, qayta ishlash va amaliyotda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan psixik jarayonlar majmuasidir. Ushbu faoliyat diqqat, xotira, idrok, sezgi va tafakkur kabi jarayonlar orqali namoyon bo'ladi.

Kognitiv faoliyatning shakllanishi bolaning rivojlanish darajasi, hayotiy tajribasi, bilimlari hamda ta'lim mazmunini tashkil etish usullariga bog'liqdir. T.P. Mixnevich kognitiv

faoliyat tarkibiga motivatsion, mazmuniy, protsessual va hissiy komponentlarni kiritadi. Mazkur komponentlar o‘zaro bog‘liq holda shaxsning bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sezgi inson sezgi organlariga ta‘sir qiluvchi predmet va hodisalarning eng sodda ruhiy jarayonidir. Inson sezgisi tovush, rang, shakl dunyosi haqida ma‘lumot beradi. Sezgidan farqli o‘laroq idrok predmet va hodisalar yaxlit obrazini o‘zida namoyon qiladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar sezgisi va idroki shakllanishining umumiy qonuniyatlari bilan birga spetsifik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Avvalambor, bu bolalarda asosiy sezgi turlaridan biri eshituv sezgisi mavjud bo‘lmaydi. Bizning organizmimizga doimo tovush ta‘sirotlari ta‘sir ko‘rsatadi. Rivojlanayotgan bola asosiy bilim manbayini eshituv sezgisi, idroki orqali qabul qiladi. U atrofdagilar bilan muloqotga kirishib, radio, musiqa eshitib, kino, teatrlarni tomosha qilib, ko‘p ma‘lumotga ega bo‘ladi. Kar bola bunday imkoniyatlardan chegaralangan bo‘ladi. Bu atrofni anglash jarayonini qiyinlashtiradi va kompensatsiyani talab etadi. O‘z navbatida bu ko‘ruv, harakat, hidlash sezgisi va idroki rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Zaif eshituvchi bolalarning spetsifik xususiyatlari deganda ularning nutqi, idroki, eshitish qoldig‘i, talaffuzi yoki muloqotidagi o‘ziga xos jihatlar tushuniladi.

L.V. Zankov, I.M. Solovyov va K.I. Veresotskiylarning tadqiqotlarida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ko‘ruv idroki rivojlanish darajasi eshituvchi tengdoshlari bilan yaqin natijalarni ko‘rsatishi aniqlangan. Shuningdek, zamonaviy audiologik tadqiqotlar eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ma‘lum qismida eshituv qoldiqlari mavjudligini ko‘rsatadi. Maxsus tashkil etilgan mashg‘ulotlar orqali ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish mumkin.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda eshituv sezgisi mavjud emas, degan fikr noto‘g‘ridir. Yangi okustik apparatlar yordamida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari ko‘rsatishicha, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning 40 %da eshituv sezgisi qoldiqlari mavjudligini ko‘rsatdi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqi shakllanishida ko‘ruv idroki katta ahamiyatga egadir. Eshituvchi bola eshituv va ko‘ruv sezgisi va idrokiga tayanib, gapirishni o‘rganadi. Nutqi mavjud bo‘lmagan eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta‘limning boshlang‘ich bosqichlarida idrok etilganini umumlashirish va sintezlashda, tasniflashda qiyinchilik sezadilar. Eshituv sezgisini yo‘qotish bilan eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda ko‘ruv sezgisi faollashadi, o‘tkirlanadi. Ko‘ruv idrokidan tashqari, anglash jarayonida hidlash va harakat sezgilari ham muhim o‘ringa egadir. Harakat sezgilari inson badani, qismlari, nutqiy organlar harakati haqida signal beradi. Eshituv analizatori funksiyasining buzilishida nutqiy harakatlar aniqligi, differensiallanganligi buziladi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning kognitiv rivojlanishida xotira xususiyatlariga erta reabilitatsiya jarayonlari, nutqning shakllanish darajasi, vizual idrokning rivojlanganligi, surdopedagogik ta‘lim yondashuvlari hamda ijtimoiy muhit sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Xotira – bu shaxsning faoliyatini yo‘naltiruvchi va axborotni uzoq saqlashga xizmat qiluvchi ichki rag‘batlantiruvchi kuchdir. Psixologiyada xotira nerv sistemasi xususiyatlaridan biri sifatida

baholanib, axborotni qabul qilish, saqlash va qayta tiklash kabi murakkab jarayonlarning yig'indisidir. Me'yoriy eshitishga ega bolalarda bilimlarning asosiy qismi eshitish analizatori orqali o'zlashtirilsa, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda bu jarayon maxsus korreksion-pedagogik yondashuvsiz to'liq shakllanmaydi. Tovushli axborotning cheklanganligi sababli ularning xotira tizimi ko'proq ko'rish va amaliy faoliyatga tayangan holda shakllanadi. T.V. Rozanova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda predmetlarning joylashuvini eslab qolish va vizual ma'lumotlarni qayta tiklash imkoniyatlari yaxshi rivojlanganligi qayd etilgan. Bu esa ularning ko'ruv xotirasiga tayanishini tasdiqlaydi.

Diqqat kognitiv faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Diqqat - ongimizning muayyan obyektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holat. Diqqat mohiyati inson tomonidan biror narsalarni aniq aks ettirishda ko'zga tashlanadi. Bir vaqtning o'zida boshqa narsalardan biror predmetni ajratib idrok etishga yordam beradi. Diqqatning fiziologik asosini bosh miya ayrim qismlaridagi qo'zg'alishlarning ayrim markazlarda to'planishi tashkil etadi. Inson tomonidan sezgilar orqali qabul qilinayotgan barcha narsalarni idrok etish diqqatsiz amalga oshmaydi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun bir vaqtning o'zida ham ko'rgazmali materialni kuzatish, ham o'qituvchining lab harakatlarini idrok etish murakkab jarayon hisoblanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik tamoyiliga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Vizual vositalardan foydalanish diqqatning barqarorligi va jamlanishini ta'minlashga yordam beradi. Og'zaki nutqni rivojlantirish ham diqqatni boshqarish va bilish faoliyatini faollashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Labdan o'qish ko'nikmasining shakllanishi bolalarning muloqot imkoniyatlarini kengaytirib, ta'lim samaradorligini oshiradi. «Labdan o'qish, - degan edi F.F. Rau, - bu nutq a'zolaridan chiqayotgan og'zaki nutqni ko'rish idrokidir». Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatini tekshirishda bolalarning yosh hamda nutqi rivojlanganlik holatiga muvofiq metodikalar tanlab olinadi. Maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning turg'un diqqatini tekshirishda Landolt namunalari (shaklli, raqamli, harfli jadval) foydalaniladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning kognitiv xususiyatlari bilish jarayonlarining o'ziga xos rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ularda ko'ruv idroki, amaliy faoliyat va vizual xotira yetakchi ahamiyat kasb etadi. Nutq rivojlanishidagi cheklanishlar tafakkur, muloqot va bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim jarayonida maxsus pedagogik metodlar, korreksion mashqlar va vizual tayanchlardan foydalanish muhim hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan pedagogik yondashuv orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning kognitiv imkoniyatlarini samarali rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mo‘minova L.R., Amirsaidova Sh.M., Mamarajabova Z.N., Xamidova M.U. Maxsus psixologiya. — Toshkent, 2013.
2. Po‘latova P.M., Nurmammedova L.Sh. Maxsus pedagogika. — Toshkent, 2014.
3. Saidova M.M. Maxsus pedagogikaning asoslari. — Toshkent: Noshir, 2012.
4. Xamidova M.U. Maxsus pedagogika. — Toshkent, 2018.
5. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. — Санкт-Петербург: Питер, 2000.
6. Muminova L.R. Maxsus psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2013.
7. Qodirova F.U., Pulatova D.A., Dehqanova M.G‘., Sh.N.Ibadullayeva Surdopsixologiya Yangi chirchiq prints 2023

